



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
*international academic peer reviewed journal*

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
*международный научный рецензируемый журнал*

**2025/1 (14)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630**

**TOSHKENT**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**ZOXIDOV Azamat Azamjonovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Таизила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмурадов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акмал Холматович** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Дилюбар Батировна** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмухamedova Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Зохидов Азamat Азамжонович** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Азамад Хамидович** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Хасанбой Усмонjon уғли** – доктор психологических наук.

**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Zokhidov Azamat Azamjonovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
Rossiya va Markaziy Osiyon  
o'rganish markazi dotsenti  
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,  
Javoharlal Neru universiteti,  
Nyu-Dehli, Hindiston

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
Chelyabinsk davlat madaniyat  
instituti,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Doktor Priti Kesavan,**  
Texnologiya fakulteti boshlig'i,  
London biznes va moliya maktabi,  
Singapur

### МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашимини Копаркар,**  
Доцент Центра исследований  
России и Центральной Азии,  
Школа международных  
исследований,  
Университет Джавахарлала Неру,  
Нью-Дели, Индия

**Артамонова Екатерина  
Иосифовна,**  
Челябинский государственный  
институт культуры,  
доктор педагогических наук,  
профессор

**Доктор Прити Кесаван,**  
Руководитель Технологического  
факультета  
Лондонская школа бизнеса и  
финансов, Сингапур

### INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**  
Assistant Professor  
Centre for Russian and Central Asian  
Studies  
School of International Studies  
Jawaharlal Nehru University  
New Delhi, India

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
Chelyabinsk State Institute of Culture  
Doctor of Pedagogical Sciences,  
Professor

**Dr. Preethi Kesavan**  
Head, School of Technology  
London School of Business and  
Finance, Singapore

*MENEJMENT*

**Xaydarova J.A.** Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyaning rivojlantirish zaruriyati.....4

*SOTSILOGIYA*

<b>Muxamedjanova L.</b> Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari.....	12
<b>Axmedova D.O.</b> Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya .....	19
<b>Vaxidova S.A.</b> Gender rollarining evolyutsiyasida ta'lif institutining o'rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil.....	26
<b>Komilova X.T.</b> Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili .....	37
<b>Xudoyberdiyeva M.</b> O'smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili.....	42
<b>Alimasov V.A.</b> O'zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv).....	47
<b>Samanova Sh.B.</b> Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabiat munosabatlarining o'zgarib borishi .....	53

*OILA VA JAMIYAT*

<b>To'rayev O.B.</b> Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta'siri .....	59
<b>Saipova M.L.</b> Migratsiya daxl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni.....	68
<b>Abduraximova F.Y.</b> Oilalarda ma'nnaviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari.....	73
<b>Ganiyev A.A.</b> The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia .....	77
<b>Toshmurodov M.I.</b> Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi .....	82

*PSIXOLOGIYA*

<b>Bo'riyeva M.Sh.</b> Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari .....	88
<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari .....	93
<b>Raximova X.</b> Oilada shaxsdagi stress va o'ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida .....	99
<b>Nasrullayeva A.A.</b> Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari .....	104
<b>Sultanova S.M.</b> Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari .....	110
<b>Абдуганиева Д.А.</b> Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности .....	115
<b>Асанова Г.М.</b> Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией .....	122
<b>Olimjonova Z.B.</b> Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128	
<b>Sharipova A.S.</b> Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence .....	136

*PEDAGOGIKA*

**Matkarimov A.M.** Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta'lifi funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....141

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHILLAR*

<b>Hojiyev R.B.</b> Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida) .....	147
<b>Rustamova N.Y.</b> Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili.....	154
<b>Bakirova N.B.</b> Professional ta'lif muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash mexanizmlari....161	
<b>Mycaeva M.I.</b> Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями ....168	



**Abduraximova Farida Yuldashevna,**  
*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*  
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i*

## **OILALARDA MA'NAVIY QADRIYATLAR VOSITASIDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSON USULLARI**

**Annotatsiya.** Maqlada oilalarda ma'naviy muhitni yaxshilashda oilaviy qadriyatlар, diniy va dunyoviy an'analar, rasm-rusumlarning ahamiyati yoritilgan. Xotin-qizlarning bilimli, ma'naviyatli, fidoyi, shijoatli va tashabbuskor bo'lishi masalalari borasidagi fikrlar bayon qilingan.

**Tayanch so'zlar.** Oila, qadriyat, ma'naviyat, xotin-qizlar, tarbiya.

**Annotation.** The article highlights the importance of family values, religious and secular traditions, and rituals in improving the spiritual environment in families. It presents ideas on how women can be educated, spiritual, selfless, ambitious, and proactive.

**Keywords.** Family, values, spirituality, women, upbringing.

**Аннотация.** В статье подчеркивается значение семейных ценностей, религиозных и светских традиций, обрядов в улучшении духовной среды в семьях. Высказываются идеи по вопросам образования, духовности, бескорыстия, амбициозности и инициативности женщин.

**Ключевые слова.** Семья, ценности, духовность, женщины, воспитание.

**Kirish.** Jamiyatning asosiy tayanchi – oila. Oilada ma'naviy muhitni yaxshilash, farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyat, milliy qadriyatlarni singdirish va qator tashabbuslarda faol, shijoatli va tashabbuskor ayollarning o'rni nihoyatda katta. Yurtimizda 18 milliondan ko'proq xotin-qizlar istiqomat qiladi. Yurtimiz ravnaqi, farzandlarimizning, xususan, qizlarimizning bilimli, har jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishida jamiyatimizda milliy qadriyatlarni yuksaltirishda xotin-qizlarimizning ilmi, bilimi, ma'naviyati, fidoyiligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila – insonning birinchi va eng muhim maktabidir. U yerda bolalar axloqiy, ma'naviy va intellektual qadriyatlar bilan tanishadi. Zamonaviy dunyoda oila tuzilmasi o'zgargan bo'lib, xotin-qizlarning roli ham kengaygan. Ular nafaqat uy bekalari, balki jamiyatning faol a'zosi, kasbiy sohalarda o'z o'rnini topgan mutaxassislardir.

Xotin-qizlarning faolligi, o'ziga bo'lgan ishonch va ijtimoiy hayotda o'rnini topishini ta'minlash oila mustahkamligi, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy qadriyatlarni insonning ruhiy dunyosini boyitadi, axloqiy me'yorlarni shakllantiradi, oilada o'zaro hurmat va muhabbatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish va amalga oshirishda zamonaviy innovatsion usullar yordam beradi. Ushbu usullarni qo'llash orqali xotin-qizlar o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi. 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan O'zbekiston Konstitutsiyasi referendumi asosida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda oilaga, qadriyatlarga bog'liq XIV bob "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanadi. Uning 76-moddasida:

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi”<sup>1</sup>, deyilgan. Agar tarixga nazar solsak, massagetlar hukmdori To‘maris, qadimgi Palmira hukmdori Zenobiya, ispan qirolichasi Izabella o‘z davrining siyosatchisi, hukmdori bo‘lganlar. G‘arbda bunday ayollar barmoq bilan sanalsa-da, Sharqda ular ko‘plab uchratish mumkin. Birgina Temur va Temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlardan sohibqiron Amir Temurning rafiqasi – Saroymulkxonim (Bibixonim) Hirotda Husayn Boyqaroning xotini – Xadichabegim, Zahiriddin Muhammad Boburning qizi – Gulbadanbegim, Avrangzeb olamgirning qizi – Zebunniso begimlar shular jumlasidandir.

Oiladagi ma’naviy qadriyatlar haqida gapirliganda, qadriyatlar o‘zi nimaligiga biroz to‘xtalmoqchimiz. Insoniyat paydo bo‘lishi bilan uning urf-odatlari, an’analari, dini, madaniyati, ezgulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlari yuzaga kela boshlagan. Uning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma’naviyati, turmush tarzi, o‘y-xayollari aks etgan. “Qadriyat” atamasi arabcha “qadr” so‘zidan olingan bo‘lib, “qimmatli, foydali” degan ma’noni anglatadi<sup>2</sup>. Qadriyatlarni shaklan bir nechta turda tasniflash mumkin.

1. *Oilaviy qadriyatlar*. Oilaviy qadriyatlar har bir oiladagi e’tibor va e’tirofdagi ijtimoiy-moddiy va ma’naviy boyliklar, ya’ni oila a’zolari tomonidan qadrlanadigan, sulolalar g‘ururiga aylangan, avloddan avlodga ma’naviy boylik sifatida o‘tib, boyib, takomillashib, jamiyatda oila imijini namoyon etadi. Dunyoviy va diniy an’analar, urf-odatlari, rasm-rusumlar, odob-axloq qoidalaridan iboratdir. Qadriyatlarning sulolaviy, shaxsiy, jamoaviy, mintaqaviy, ma’naviy kabi yo‘nalishlari mavjud.

Qadriyatlarning yana bir yo‘nalishi *diniy qadriyatlardir*. Ushbu qadriyatlar ham jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Bu borada Qur’oni Karimda, Hadisi sharifda ham qayd etilgan. Buyuk mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy qarashlari, fikrlari milliy ma’naviyatimizga asos bo‘lib xizmat

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://constitution.uz/oz/clause/index>

2 O.Musurmonova, H.Norqulov, F.Abdurahimova. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. 2023. – 140 b.

qildi. Bular imon, e’tiqodlilik, andishalilik, halollik, ota-onaga mehr, insonni qadrlash, jumladan, ayollarga (Niso surasi), ustozlarga hurmat kabi qadriyatlardir.

Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlari, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlanadi. Farzand dastlabki tarbiyani shu makonda oladi, dunyoqarashi shakllanadi. Bu borada oilaning, ota-onalarning ham o‘rnii muhimdir. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari, sa’y-harakatlari bilan oila, xotinqizlar, ayol va erkaklarning gender tengligi kabi masalalarda 40 ga yaqin huquqiy normativ hujjat qabul qilindi. 38 millionga yaqin aholining yarmiga yaqinini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Bu borada oila ma’naviyati, qadriyatlari har bir oilaning, uning har bir a’zosining, ham ayol, ham erkakning ma’naviyatiga bog‘liqdir.

Bugun oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda yutuqlar bilan birgalikda muammolar ham yo‘q emas. Davlat rahbarining 2021-yil 19-yanvardagi videoselektor yig‘ilishida “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” deya ta’kidlashi ma’naviy sohadagi ishlarimizga dasturilamal bo‘ldi. Yig‘ilishdan kelib chiqib, oilaviy qadriyatlar va yoshlardan tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berish yoshlari, shu jumladan, qizlar o‘rtasida huquqbozarlikning barvaqt oldini olish maqsadida “Avlodlar uchrashuvni” loyihasi, “Bir ziyoli – bir mahallada ma’naviy homiy”, “Bir nuroniy – besh nafar yoshta murabbiy” tamoyillari asosida ishlash tizimi yaratildi.

Oilaviy, milliy, diniy qadriyatlar ham xotinqizlar faoliyatini faollashtirishda muhim omil hisoblanadi. 2024-yilgi Haj ibodatlarini O‘zbekistonдан 15 mingdan ortiq erkak va ayollarimiz emin-erkin amalga oshirdilar. Hojilarimizning barchalari O‘zbekistonga qaytgach, “Ma’naviyat targ‘ibotchisi” bo‘lishini ma’lum qildi. Ular xalqimizning umrboqiy urf-odatlari va qadriyatlarini har bir oilada, jumladan, xotin-qizlar, yoshlari o‘rtasida targ‘ibotchi bo‘lishga va’da berdi. Demak, bu degani oilalarda ma’naviy qadriyatlarni yanada mustahkamlash, oddiygina salomlashish, nikoh, farzandlarni tarbiyalash, ota-onani hurmat qilish, ilm olish, kiyinish odobi kabi ma’naviy qadriyatlarni singdirish, avloddan-avlodga yetkazish demakdir.

Ma’lumki, bugungi kunda oilaviy ma’naviyat tozalovchi filtr vazifasini o‘taydi. Iqtisodiy tazyiqni oldindan sezish, ko‘rish, bilish, uning oldini olish bo‘yicha rejalar tuzish mumkin. Ammo, mafkuraviy-ma’naviy tazyiqlarni uning yoqasiga

kelib qolmagunimizcha sezmaymiz. Shunday ekan, turli ko'rinishlarda jamoat, oila, xotin-qizlar, ayniqsa, yoshlar hayotiga, turmush-tarziga, ongu-shuuriga asta-sekin kirib kelib, ularning fikru-zikrini egallab olayotgan "ommaviy madaniyat"ga, ma'naviy buzuqliklarga qarshi yagona immunitet ham ma'naviyatdir. Bu borada, birinchi navbatda, oilaning, ota-onalarning mas'uliyati juda katta. Bir adibning: "Farzand tarbiyasiga vaqtingni ketkazma, avval o'zingni tarbiyal" degan fikri har bir ota-onsa uchun dasturilamal bo'lmog'i zarur.

O'zbek tili izohli lug'atida oilaga "Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuyi" deb ta'rif berilgan. Tarixga nazar solsak, kishilikning ilk ibtidoi davridan boshlab oilaviy munosabatlar mavjud bo'lgan. Lekin bugungi kundagi oilalardan tubdan farq qilgan. Oila avval jamoaviy juftlik asosida bo'lib yashagan. Oilaviy munosabatlar inson taraqqiyoti bilan hamnafas holatda rivojlanib, avval axloqiy, diniy, so'ng huquqiy normalar asosida tartibga solina boshlandi.

Ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat oilaviy munosabatlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Uylanish bu hayotda sheriklikning ahd-u poymonidir. Er-xotin birga bo'la turib, hayot yo'lida birgalikda bo'lmox va bir-birlariga yordam bermoq uchun ahd qiladilar. Bir-birlarining haqqiga zulm, jafo va xiyonatni ravo ko'rmaydilar. Tabiiyki, er-xotin agarda diyonatli va axloqli bo'lsa, shu ahd-paymonlarga bir umr sobit qoladilar. Shu narsa aniqki, va'daga xilof qo'yilgan har bir qadam shu ahd-paymonning buzilishiga olib kelib, badbaxtlik va tinchsizlikni oilalar boshiga keltiradi"<sup>3</sup>.

Oila inson uchun muqaddas dargoh bo'lib, u insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlari zamirida yuzaga keladi. Oila taqdiri uning rasmiy tus olish lahzasidan boshlanadi. Shundagina er xotin oldida, xotin er oldida, ular ota-onsa sifatida farzandlari, qavm-qarindoshlari, mahalla-ko'y, qisqasi, jamiyat oldida o'z navbatida farzandlar ham o'z ota-onalari oldida mas'uliyat sezadilar va burchli ekanligini his qilib yashaydi. Demak, oilaning ma'nан taraqqiy topgani uning mustahkamligi asoslaridan biri ekan. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda, aynan, oila qurish va nasl qoldirish global muammoga aylanmoqda. Har tomonlama rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, aholi soni kamayishi, qariyalar sonining ortishi, yoshlar sonining qisqarib borishi, betartib hayot, turli bedavo jinsiy kasalliklar tarqalishi, bir

<sup>3</sup> Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари . – Тошкент, 2000. – 112 б.

jinsli nikohlarni davlat tomonidan qonuniy jihatdan himoya qilishning boshlanishi – shu davlatlarni, oilalarni ma'naviy inqirozga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z intervyularidan birida oila haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman<sup>4</sup>. Demak, oilalarda ma'naviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlarimizning faoliyatini takomillashtirish bugungi yangi O'zbekistonning tamal toshini qo'yishda eng muhim vositalardan biridir. "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishda Prezidentimiz oila, ta'lim-tarbiya, ustoz, oilaviy-ma'naviy qadriyatlar masalalariga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas, albatta. Oila, xotin-qizlar masalasi, milliy qadriyatlarimizning dunyoviy va diniy tamoyillari hamisha eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

Oilalardagi milliy qadriyatlar, oilaning tinchligi, farovon yashash mazmuni va mohiyati qaysi toifa, qaysi jinsdagi fuqaro bo'lishidan qat'iy nazar, o'z hayotidan, jamiyatdan rozi bo'lib, kundalik turmush talablariga rioya etib, bir-birlarini qadrlab yashash uchun quyidagi amaliy takliflarni berish mumkin:

1. Oilada yashovchi er-xotin, o'z ota-onasi, sulolasi, qarindosh-urug'lari, do'stlari, mehnat jamoasi bilan mehr-oqibatlari, bir-birlariga nisbatan saxovatli, insonparvar bo'lish.

2. Mahalla va oila obodligi, xavfsizligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit yaratish, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish, kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etish.

3. Aholi o'rtasida oila va nikoh muqaddasligi g'oyasini, milliy an'ana, urf-odatlar, xalqimizning boy ma'naviy merosini keng targ'ib qilish. Bunda innovatsion usullar va yangi texnologiyalardan keng foydalananish.

4. Oilaviy munosabatlarda er va xotin, ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va mehr-oqibat rishtalarini saqlash va rivojlantirishda ko'maklashish. Bunda OAV, ayniqsa, televideniye imkoniyatlaridan, maxsus ko'rsatuvalar, davra suhbatlari orqali ta'sirchan materiallar berib borish.

<sup>4</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

5. Oilalarda ham onaning, ham otaning farzand ta’lim-tarbiyasi uchun mas’ulligini keng targ‘ib etish, eng namunalni, o‘z ayoli, farzandlari, ota-onasi e’zozlagan oila boshi, erkaklar haqida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, “Oilada ota mas’uliyati”, “Milliy qadriyat – oila tayanchi” kabi mavzularda turli tanlovlardar tashkil etish.

6. Farzandlarni ota-onaga hurmat, g‘amxo‘rlik hissini shakllantirish, kreativ fikrlash bo‘yicha natijali tadbirlarni muntazam, tizimli tashkil etib borish.

Oilada ma’naviy qadriyatlarni amalga oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar berilishi mumkin:

1. Oilada o‘zaro hurmat va muhabbatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish. Oila a’zolari bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularning fikr va his-tuyg‘ularini tinglash, tushunishga harakat qilishi kerak.

2. Oilada o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish. Oila a’zolari bir-biriga muammolarni hal qilishda yordam berish, qo‘llab-quvvatlash va ishonch bildirishga harakat qilishi kerak.

3. Oilada o‘zaro tushunish va muloqotni rivojlantirish. Oila a’zolari bir-biriga ochiq va samimiyl muloqot qilish, o‘zaro fikr almashish va bir-birlarining his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qilishi kerak.

4. Bolalarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash. Ularga halollik, mehribonlik, vatanparvarlik, o‘zaro hurmat, insonparvarlik, to‘g‘rilik, mas’uliyatlilik va boshqa ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatish kerak.

### *Xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion dasturlar*

Xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion dasturlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Xotin-qizlarni o‘z bizneslarini boshlashda qo‘llab-quvvatlash. Masalan, biznes-rejalarni tuzish, moliyaviy resurslarni jalb qilish va marketing bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

2. Xotin-qizlarga texnologiyalarni va ularni o‘z faoliyatlarida qo‘llash ko‘nikmalarini o‘rgatish. Masalan, kompyuter savodxonligi, onlayn marketing, ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kurslar tashkil etish.

3. Xotin-qizlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan seminarlar, master-klasslar o‘tkazish. Masalan, psixologiya, pedagogika, ijtimoiy ishlar, sanoat sohalari va boshqa yo‘nalishlarda o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatini yaratish.

### *Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini mustahkamlash*

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini mustahkamlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Xotin-qizlarga siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish. Masalan, ayollar kengashi, tuman va shahar kengashlari hamda boshqa ijtimoiy tashkilotlarda vakilligini ta’milash.

2. Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik va kamsitishlarning oldini olish, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularga nisbatan zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishiga qarshi kurashish bo‘yicha keskin choralarini ko‘rish.

3. Xotin-qizlarga qaratilgan ta’lim va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini kengaytirish, ularga yangi kasblarni o‘zlashtirish va biznesini boshlashga ko‘maklashish.

**Xulosa.** Oilada ma’naviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirish, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish va jamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy innovatsion usullar va amaliy tavsiyalar oilada ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish, xotin-qizlarning o‘zini anglashi va jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, hayotda o‘z o‘rnini topishi, oila va jamiyatning barqaror rivojlanishiga ijobji ta’sir ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://constitution.uz/oz/clause/index>
2. O.Musurmonova, H.Norqulov, F.Abdurahimova. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2023. –140 b.
3. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари . – Тошкент, 2000. – 112 б // <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>
4. N.M.Egamberdiyeva, D.A.Mahmudova. Oila ko‘zgusida baxt. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2021. – 40 b.

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,  
Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullahov L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.